

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

OTAJONOV OLMOSBEK ASQARALI O‘G‘LI

**TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA RESURS TEJAMKOR
DEVORBOP KULBETON BUYUMLARNING OPTIMAL TARKIBI,
XOSSALARI VA ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ
QILISH**

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Otajonov Olmosbek Asqarali o‘g‘li

Technogen chiqindilar asosida resurs tejamkor devorbop kulbeton buyumlarning optimal tarkibi, xossalari va ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq qilish.....3

Отажонов Олмосбек Аскаралиевич

Исследование оптимального состава, свойств и технологии производства ресурсосберегающих стеновых золобетонных изделий на основе техногенных отходов.....21

Otajonov Olmosbek Asqarali o‘g‘li

Study of the optimal composition, properties and production technology of resource-saving ash aerated concrete wall products based on technogenic waste..39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

OTAJONOV OLMOSBEK ASQARALI O‘G‘LI

**TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA RESURS TEJAMKOR
DEVORBOP KULBETON BUYUMLARNING OPTIMAL TARKIBI,
XOSSALARI VA ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ
QILISH**

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2959 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqu.edu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sattorov Zafar Muradovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxodirov Azizbek Abdulazizovich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Sulton Ilyasovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 7-noyabr soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100194, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar, 9-uy, 4-bino, 5-qavat, Kovorking markazi. Tel.: (99855) 508 02 95; faks: (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (130 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent sh, Yunusobod tumani, Yangi shahar, 9-uy. Tel.: (99855) 508 02 95; faks: (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” oktabr kuni tarqatildi.
(2024-yil “_____” oktabrdagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

X.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

I.I. Siddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika
fanlari doktori, dotsent

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon qurilish materiallari sanoatida energiya samarador, resurs tejamkor, issiqlik izolyatsion xossalari yuqori materiallar tayyorlashda turli xildagi qattiq sanoat chiqindilaridan foydalanish asnosida, qulay ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lgan narxi arzon devorbop serg'ovak beton buyumlar ishlab chiqarish zarurati ortib bormoqda. Bugungi kunda, dunyo mamlakatlaridagi issiqlik elektr stansiyalarida ko'mir yoqilishi natijasida yiliga 900 million tonnadan ortiq kul hosil bo'lmoqda. Yoqilg'i yonishidan hosil bo'ladigan chiqindilarni utilizatsiya qilish atrof muhitni yaxshilanishiga katta foyda keltiradi, shu sababli kuldan sifatli devorbop serg'ovak beton bloklar ishlab chiqarish va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish sayyoramizdagi yetakchi global muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirda gazkulbetonning mustahkamligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, ovoz izolyatsiyasi, va olov bardoshlik xossalarini kimyoviy qo'shimchalar qo'shish orqali takomillashtirish va ularni ishlab chiqarishni energiya tejamkor texnologiyalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda gazkulbetonni fizik, mexanik va kimyoviy xossalarini yaxshilash, ularni tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishni energiya tejamkor texnologiyalarini yaratish, qotish muddatini qisqartirishda kimyoviy qo'shimchalardan foydalanish, suv talabchanligini kamaytirish, ishlab chiqarishda mahalliy xom ashyo va ikkilamchi resurslardan foydalanish hamda mineral bog'lovchi sarfini kamaytirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada serg'ovak betonlarni sovuqqa chidamliligini yaxshilash, mustahkamligini oshirish, issiqlik o'tkazuvchanligini kamaytirish, mukammal struktura hosil qilish va ularning tarkibiga qo'shiladigan sanoat chiqindilarining optimal miqdorini aniqlash asosiy ustuvor yo'nalishlar hisoblanmoqda. Shu bilan birga issiqlik elektr stansiyalari kullari asosida turli agressiv iqlim sharoitga va tashqi ta'sirlarga bardoshli, qulay ekspluatatsion xususiyatlariga ega bo'lgan yangi kompozit gazkulbeton yaratish ham juda dolzarb muammodir.

Respublikamizda mahalliy sanoat qattiq chiqindilari asosida sifatli energiya va resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish va ularni turlarini kengaytirish, ichki bozorni mahalliy xom ashyolardan tayyorlanadigan raqobatbardosh buyumlar bilan boyitish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmonida, "Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligini ta'minlash" bo'yicha qator hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Belgilangan vazifalar ichida mahalliy xom ashyolardan qurilish materiallari ishlab chiqarish, tabiiy resurs bo'lgan beton to'ldiruvchilarini tejash asosida turli resurs tejamkor devorbop buyumlar tarkibini ishlab chiqish juda dolzarbdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”¹gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4335-son Qarorida ham qurilish tarmog‘ida devorbop materiallarining yangi zamonaviy turlarini ishlab chiqarish va kengaytirish, 2019-2025 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasi hajmini oshirish kabi qator vazifalar belgilab berilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda serg‘ovak betonga kul qo‘shish, uni takomillashtirish uchun kimyoviy qo‘shimchalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqot olib borgan chet el olimlaridan – C. Hachnel, K.A. Yamada, N. Spiratos, Y.V. Shukina, T.A. Uxova, K.V. Gladkix, S.F. Stelmax, K.P. Chernix, V.P. Vasilev, R.G. Dolotova, O. Pozniak, Charith Herath, O. Richard, Nguen Txan Tuan, Y.F. Houst, E. Janovska-Renkas, B. Lothenbach, S. Pourchet va boshqalarning chop etgan ilmiy asarlari tahlil qilindi va ushbu muammolarni hal qilishga qo‘shgan hissalari o‘rganildi.

Respublikamizning qurilish materiallari sohasidagi yetakchi olimlari – A.B. Ashrabov, E.U. Qosimov, B.A. Asqarov, X.A. Akramov, N.A. Samigov, A.A. To‘laganov, A.I. Adilxodjaev, M.K. Toxirov, S.A. Xodjaev, N. Abbasxonov, U.A. Gaziev, X.X. Komilov, Z.M. Sattorov va boshqalar serg‘ovak betonlarning tarkibini optimallashtirish, sifatini yaxshilash, tannarxini pasaytirish va kimyoviy qo‘shimchalardan foydalanib serg‘ovak betonlarning strukturasi va xossalarini yaxshilash masalalarini o‘rganishda ko‘plab yutuqlar hamda muhim ilmiy natijalarga erishganlar.

Avval o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili kimyoviy qo‘shimchalarni gazkulbetonning struktura hosil qilishiga ta’siri, kimyoviy qo‘shimcha qo‘llanilgan gazkulbeton tarkiblarini ishlab chiqish va optimallashtirish, mahalliy xom ashyolar asosidagi superplastifikatorlardan foydalanish orqali reologik xossalarini yaxshilash, gazkulbetondan tayyorlanadigan devor konstruksiyalariga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirish, sement sarfini ozaytirish va mustahkamligini oshirishga qaratilgan masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababdan kul asosidagi, kimyoviy qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalangan va qurilish texnik talablariga javob beradigan, xom ashyoni tuyish va mahsulotga bug‘ bilan ishlov

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

berishni talab etmaydigan gazkulbeton tarkibini ishlab chiqish ekologik jihatdan ham dolzarb masaladir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti Ilmiy kengashining 03.11.2022y. 2-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Texnogen chiqindilar asosida resurs tejamkor devorbop kulbeton buyumlarning optimal tarkibi, xossalari va ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq qilish" (2022-2023y.) mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi issiqlik elektr stansiyasi kuli asosida tayyorlanadigan gazkulbetonning optimal tarkibini ishlab chiqish, kimyoviy qo'shimchalar bilan modifikatsiyalash, xossalarini o'rganish va ishlab chiqarish texnologiyasini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlik elektr stansiyasi kuli asosida kimyoviy qo'shimcha qo'shib tayyorlanadigan gazkulbeton tarkibini optimallashtirish;

kimyoviy qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning fizik-mexanik va issiqlik o'tkazuvchanlik xossalarini o'rganish;

kimyoviy qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan gazkulbeton tarkibini fizik-kimyoviy tahlil qilish;

kimyoviy qo'shimcha bilan modifikatsiyalanadigan gazkulbeton tayyorlash texnologiyasini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mahalliy xom ashyolar, texnogen chiqindilar va kimyoviy qo'shimchadan foydalanib tayyorlangan gazkulbeton olingan.

Tadqiqotning predmetini issiqlik elektr stansiyasi kuli asosida superplastifikator kimyoviy qo'shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va texnik-iqtisodiy parametrlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot ishlarini olib borishda gazkulbetonning xossalari va sifat ko'rsatkichlarini o'rganishning standartlashtirilgan usullari, rentgen fazali tahlil, differensial termogravimetrik tahlil, fizik-kimyoviy tahlilning infraqizil spektroskopik usullari, skanerlovchi elektron mikroskopik va elementlar tahlili, tajriba natijalarini tahlil qilishning matematik modellash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi:

sement 50%, mayinlik darajasi 0,15 mm gacha bo'lgan kul 50% va sement massasiga nisbatan 1,2% polikarboksilat efirlari asosidagi "SDj-1" superplastifikatori qo'shib mustahkamligi yuqori, issiqlik o'tkazuvchanligi past bo'lgan gazkulbeton tarkibi ishlab chiqilgan;

sement, kul va superplastifikator massasi bog'liqligiga ko'ra gazkulbetonning mustahkamlik ko'rsatkichlari o'zgarishini aniqlashda tarkibni optimallashtirish matematik modeli takomillashtirilgan;

"SDj-1" superplastifikatori bilan modifikatsiya qilingan gazkulbeton qorishmasining suv talabchanligi kamaytirilgan, ko'pchilik va qotish jarayonlarida

mustahkam struktura shakllanishida polikarboksilat efirlarini sementning C_3S , C_2S , C_3A va C_4AF minerallariga ijobiy ta'sir qilish mexanizmi aniqlangan;

gazkulbeton ishlab chiqarishda mayinlik darajasi 0,15 mm gacha bo'lgan faol kuldan foydalanib, qotish jarayonini polikarboksilat efirlari asosidagi "SDj-1" superplastifikatori bilan tezlashtirilgan, ishlab chiqarish samaradorligi oshirilgan, energiya tejamkor sharli tegirmonsiz texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

teng nisbatlardagi sement va kul asosida superplastifikator qo'shib takomillashtirilgan gazkulbetonning optimal tarkiblari asosida devorbop bloklar ishlab chiqarilgan;

yangi modifikatsiyalangan gazkulbetonni fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilingan;

modifikatsiyalangan gazkulbeton ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va devorbop bloklar ishlab chiqarish natijasida 22 % gacha iqtisodiy samaraga erishilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Eksperimental tadqiqotlarni zamonaviy asboblardan standart usullardan foydalangan holda chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tajribalarni qurilish me'yorlari va qoidalari hamda talab etilgan davlat standartlari bo'yicha o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini yuqori aniqlikda bajarilgani, hamda ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati issiqlik elektr stansiyasi kuli va "SDj-1" superplastifikator qo'shimchasi qo'shib modifikatsiyalangan gazkulbeton bo'yicha ilmiy nazariyalar, ularning tarkibi, fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilishdan iborat.

Ishning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida issiqlik elektr stansiyasi kuli va "SDj-1" superplastifikator qo'shimchasi qo'shib modifikatsiyalangan gazkulbetonning tarkibi ishlab chiqilib, uni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Issiqlik elektr stansiyasi kuli asosidagi "SDj-1" superplastifikator qo'shib modifikatsiyalangan gazkulbeton tarkiblarini loyihalash va xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"SDj-1" superplastifikatori bilan modifikatsiya qilingan tarkibli gazkulbeton ishlab chiqarish samaradorligi oshirilgan va energiya tejamkor texnologiyasi asosida tashqi to'siq konstruksiyalar uchun gazkulbeton buyumlari ishlab chiqarish "New building-bricks" MChJda amaliyotga joriy qilingan ("O'z sanoatqurilish materiallari" uyushmasining 2024-yil 22-apreldagi 02/15-867-sonli ma'lumotnomasi). Natijada D500, D600 va D800 markadagi gazkulbeton qorishmasining suv talabchanligini 15-20 % kamaytirishga erishilgan.

Polikarboksilat efirlarining ta'sir qilish mexanizmi asosida modifikatsiya qilingan yangi tarkibli gazkulbeton ishlab chiqarish texnologiyasi asosida ichki to'siq konstruksiyalari uchun gazkulbeton buyumlari ishlab chiqarish "Zilha temir beton mahsulotlari" sho'ba korxonasida amaliyotga joriy qilingan ("O'z sanoatqurilish materiallari" uyushmasining 2024-yil 22-apreldagi 02/15-867-

sonli ma'lumotnomasi). Natijada D500, D600 va D800 markadagi gazkulbeton qorishmasida mustahkamlikni saqlagan holda sement sarfini 10-15% kamaytirishga erishilgan.

Yangi tarkibli, modifikatsiyalangan gazkulbeton olishda energiya tejamkor usul sifatida sharli tegirmonsiz texnologiya ishlab chiqilgan, ushbu texnologiya asosida gazkulbeton ishlab chiqarish "Zilha temir beton mahsulotlari" sho'ba korxonasi va "New building-bricks" MChJda amaliyotga joriy qilingan ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024-yil 22-apreldagi 02/15-867-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mayinlik darajasi 0,15 mm gacha bo'lgan faol kuldan foydalanib D500, D600 va D800 markadagi gazkulbetonlarni kam sement sarflab olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya, 1 ta "Scopus" bazasidagi maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta va 2 ta maqola xorijiy jurnalda nashr qilingan. Bundan tashqari Intellektual mulk agentligidan EHM uchun dasturiy ta'minotga 2 ta egalik huquqini belgilovchi guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 116 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi ifodalangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mos ekanligi ko'rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va olingan natijalari, hamda ularning ilmiy-amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotda ishlab chiqarishga tatbiq etilganligi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Tadqiqot ishlari natijalarining aprobatsiyasi haqidagi ma'lumotlar, ilmiy nashrlar, shuningdek, dissertatsiya strukturasi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning "**Serg'ovak beton ishlab chiqarish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili va masalaning qo'yilishi**" deb nomlangan birinchi bobida, ilmiy muammoning zamonaviy holatini chet el, hamda yurtimiz olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy maqola va ishlanmalarida keltirilgan izlanishlari natijalari tahlili keltirilgan. Unda serg'ovak betonlarning turlari va ishlab chiqarishning dolzarb muammolari, ishlab chiqarishning an'anaviy texnologiyasi, gazbeton beton ishlab chiqarishda texnogen chiqindilardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, kimyoviy qo'shimchalarni yaratish va qo'llash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tahlili, energiya va resurs tejamkor g'ovak beton bloklar ishlab

chiqarish istiqbollari bo'yicha mavjud muammolar o'rganib chiqilgan va tahlil qilinib, tadqiqotning ishchi gipotezasi, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Foydalaniladigan materiallarning xususiyatlari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ishida qo'llanilgan materiallarning xususiyatlari, fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish usullari, kimyoviy qo'shimcha bilan modifikatsiyalangan gazkulbeton tarkibidagi komponentlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun hisoblashni matematik modellashtirish usullari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Ilmiy tadqiqot ishida “Ohangaronsement” AJ da ishlab chiqarilgan, DAST 31108-2020 va DAST 30515-2013 talablariga javob beruvchi CEM I 42,5 N va CEM II/AK (Z-I) 42,5 N markadagi sementlar, “Angren IES” OAJ kuli (0,15 mm gacha yiriklikdagi) va toshqoli, gaz hosil qiluvchi – alyuminiy kukuni, natriy gidroksidi va superplastifikator qo'shimchalaridan foydalanilgan. Ushbu bobda komponentlarning davlatlararo standartlarga muvofiq aniqlangan asosiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Gazkulbeton va uning xom ashyo materiallari xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tajriba ishlarining asosiy qismi Farg'ona politexnika instituti “Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish” kafedrasida laboratoriyasida hamda Toshkent arxitektura-qurilish universiteti “Qurilish va atrof-muhit muhandisligi” kafedrasida bajarildi.

Dissertatsiyaning **“Gazkulbetonning optimal tarkibi, fizik-mexanik xossalari va ularni “SDj-1” kimyoviy qo'shimchasi bilan takomillashtirish”** nomli uchinchi bobida issiqlik elektr stansiyasi kuli asosidagi gazkulbeton tarkibini kimyoviy qo'shimchalar bilan takomillashtirishning ilmiy asoslari, gazkulbeton qorishmasining reologik xossalariga “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasining ta'siri, “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasi qo'shilgan issiqlik elektr stansiyasi kullari asosidagi kompozit gazkulbeton tarkibini tanlash, tajribaviy statistik modellashtirish usulida “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbeton komponentlarining o'zaro bog'liqligi hisoblangan, “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning fizik-mexanik xossalari aniqlangan.

Gazkulbeton qorishmasining reologik xossalariga “SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo'shimchasining ta'siri. Tadqiqotlarda mahalliy xom ashyolardan olingan “SDj-1” markadagi superplastifikator qo'shimchasidan foydalanildi.

Gazkulbeton qorishmasini suv talabchanligi va yoyiluvchanligiga “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasining ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba ishlari uchun 40 °C haroratgacha isitilgan suvdan foydalanildi.

“SDj-1” superplastifikator qo'shimchasini gazkulbeton qorishmasining reologik xossalariga ta'siri o'rganildi. “SDj-1” superplastifikator qo'shimchasini gazkulbeton qorishmasining normal qo'yiqligiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

“SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasini gazkulbeton qorishmasining normal qo‘yiqligiga ta’siri

№	Sement miqdori, %	IES kuli miqdori (0,15 mm), %	Sement massasiga nisbatan kimyoviy qo‘shimcha miqdori, %	S/Q nisbati	Qorishmaning yoyiluvchanligi, sm
1	50	50	—	0,60	7
2	50	50	—	0,65	13
3	50	50	—	0,70	18
4	50	50	—	0,75	22
5	50	50	0,8	0,60	9
6	50	50	0,8	0,65	15
7	50	50	0,8	0,70	20
8	50	50	0,8	0,75	24
9	50	50	1,2	0,60	22
10	50	50	1,2	0,65	25
11	50	50	1,2	0,70	29
12	50	50	1,6	0,60	23
13	50	50	1,6	0,65	26
14	50	50	1,6	0,70	30

Tajriba natijalariga ko‘ra kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbeton qorishmasining yoyiluvchanligi S/Q nisbati 0,75 tashkil etganda uning yoyiluvchanligi 22 sm tashkil etdi. 0,8 % kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilgan gazkulbeton qorishmasining yoyiluvchanligi S/Q nisbati 0,75 tashkil etganda uning yoyiluvchanligi 24 sm, 1,2 % kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilgan gazkulbeton qorishmasining yoyiluvchanligi S/Q nisbati 0,60 tashkil etganda uning yoyiluvchanligi 22 sm va 1,6 % qo‘shimcha qo‘shilgan gazkulbeton qorishmasining yoyiluvchanligi S/Q nisbati 0,60 ni tashkil etganda uning yoyiluvchanligi 23 sm ni tashkil etdi. Bunda qo‘shilgan “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasining miqdori asosida olingan tajriba natijalariga muvofiq, gazkulbeton qorishmasiga eng optimal qo‘shiladigan “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasining miqdori sementning massasiga nisbatan 1,2 % ekanligi aniqlandi. Sababi, 1-jadvalga ko‘ra, “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi miqdori 0,8 % qo‘shilgan va qo‘shimcha qo‘shilmagandagi qorishma yoyiluvchanligida farq deyarli katta emasligi, “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi 1,6 % va 1,2 % qo‘shilgandagi natijalarda ham, S/Q – 0,6 da farq 1 sm tashkil etdi (1-jadval).

Gazkulbeton xususiyatlariga issiqlik elektr stansiyasi kuli hamda “SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo‘shimchasining ta’siri. Tajriba tadqiqotlari kul asosida tayyorlanadigan superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton laboratoriya namunalarini tayyorlash uchun optimal tarkibni aniqlashga yo‘naltirilgan. “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasining gazkulbeton mustahkamligiga ta’sirini aniqlash uchun namunalar tayyorlandi. Tayyorlangan namunalarning tarkibi va fizik-mexanik xossalarini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

D600 markadagi gazkulbeton namunalarning tarkibi va uning mustahkamligiga “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasining ta’siri

№ t/r	Sement	IES kuli (0,15 mm)	S/Q	Alyumin kukuni, qattiq moddalar og‘irligiga nisbatan, %	Sement massasiga nisbatan, %		Gazkulbetonning siqilishdagi mustahkamligi, MPa		
					SDj-1	NaOH	3 kun	7 kun	28 kun
1	300	300	0,75	0,15	—	0,20	0,81	1,17	2,13
2	300	300	0,75	0,15	0,2	0,20	0,98	1,21	2,35
3	300	300	0,75	0,15	0,4	0,20	0,97	1,23	2,49
4	300	300	0,75	0,15	0,6	0,20	1,22	1,30	3,12
5	300	300	0,70	0,15	0,8	0,15	1,21	1,38	3,39
6	300	300	0,70	0,15	1,0	0,15	1,23	1,33	3,45
7	300	300	0,60	0,10	1,2	0,10	1,43	2,24	3,66
8	300	300	0,60	0,10	1,4	0,10	1,29	2,63	3,60
9	300	300	0,60	0,10	1,6	0,10	1,13	1,77	3,57

Tajriba namunalari sinash orqali 50 % sement, 50 % kul qo‘shilgan namunalarning zichligi loyihaga mos ravishda $\rho = 588 \div 628 \text{ kg/m}^3$, mustahkamligi $R_{siq} = 2,13 \div 3,66 \text{ MPa}$ ekanligi aniqlandi. Suv talabchanligi esa “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi miqdorini ortib borishiga qarab kamayib bordi. 2-jadvalda namunalarning siqilishdagi mustahkamlik bo‘yicha natijalari asosida grafik tuzilgan. Olib borilgan tajriba ishlari natijalari barcha muddatlardagi (3, 7, 28 kun) “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton tajriba namunalarning mustahkamligi, superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilmagan nazorat namunalari nisbatan oshganligini ko‘rsatdi. Bunda eng yaxshi natijalarni 1,2 – 1,4 – 1,6 % miqdorda “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan namunalarda kuzatildi.

Tajribaviy statistik modellashtirish usulida “SDj-1” kimyoviy qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbeton tarkibini optimallashtirish. Gazkulbetonning matematik modeli to‘liq faktorli uch o‘zgaruvchili ortogonal reja shaklida tayyorlab olindi. Gazkulbeton tayyorlashning asosiy texnologik faktorlari sifatida 1 m^3 gazkulbeton qorishmasini tayyorlash uchun suv-qattqlik nisbati, S/Q (X_1); qorishmadagi o‘lchami 0,15 mm dan kichik bo‘lgan kul miqdori (X_2); va “SDj-1” markadagi superplastifikator qo‘shimchasi, % (X_3) miqdorlari belgilab olindi.

Komponentlarning o‘zgarish chegaralari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Faktorlarning o‘zgarish chegaralari

Faktorlar	O‘zgarish chegaralari			O‘zgarish intervali
	+1	0	-1	
Suv qattqlik nisbati, S/Q, X_1	0,65	0,6	0,55	0,05
Kul miqdori, nisbatda, X_2	0,55	0,50	0,45	0,05
“SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi miqdori, % X_3 .	1,4	1,2	1	0,2

Sinov ishlarini bajarishda gazkulbeton namunalari xossalari o'rganib chiqildi va tanlab olingan 3 ta faktorlar (suv-qattqlik nisbati, S/Q (X_1); qorishmadagi kul miqdori (X_2); va "SDj-1" markadagi superplastifikator, % (X_3)) namunalarning mustahkamligiga ko'rsatadigan ta'sirini hisoblash maqsad qilib olindi. Matematik reja uch darajadagi (pastki, o'rta va yuqori) uchta faktorning o'zgarishini hisobga oladi va bunda faktorlar darajalarining 9 ta nuqtasida tajribalar o'tkazish qabul qilindi. Tajriba namunalari amaldagi xalqaro standartlarga muvofiq laboratoriya sharoitida 100x100x100 mm o'lchamlarda tayyorlangan namunalarda ustida bajarildi.

$$y = 3,0431 - 0,0511x_1 + 0,0405x_3 - 0,0303x_1x_2 - 0,0386x_2x_3$$

Gazkulbeton mustahkamligi (R) bo'yicha o'rganilgan faktorlar orasidagi bog'liqlik chiziqli ekanligi aniqlandi. Hisoblash davomida aniqlangan koeffitsientlarning ahamiyatli ekanligi Student kriteriyasi bo'yicha aniqlandi va hosil qilingan tenglama Fisher kriteriyasi bo'yicha taqqoslab yaroqliligi (adekvatligi) tasdiqlandi.

"SDj-1" superplastifikator kimyoviy qo'shimchasi bilan modifikatsiyalangan kompozit gazkulbetonning fizik-mexanik xossalari. Superplastifikator qo'shimchasi bilan modifikatsiya qilingan gazkulbeton namunalari fizik-mexanik xossalari aniqlash tadqiqot ishlari Farg'ona politexnika institutining "Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish" kafedrasida laboratoriyasida, Toshkent arxitektura-qurilish universitetining "Qurilish va atrof-muhit muhandisligi" kafedrasida laboratoriyasida va "Gidroproekt" laboratoriyasida amalga oshirildi. Gazkulbeton namunalari tarkibi va fizik-mexanik xossalari aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval


**IES kuli asosidagi gazkulbetonning mustahkamligiga
IES kultoshqolning ta'siri**

№ t/r	Sement	IES kuli (0,15 mm)	Kul- toshqol	S/Q	Alyumin kukuni, qattiq moddalar massasiga nisbatan, %	Sement massasiga nisbatan, %		R_{siq} , MPa	ρ , kg/m ³
						SDj-1	NaOH		
1	50	30	20	0,55	0,10	1,2	0,1	2,43	553
	50	30	20	0,55	0,10	1,2	0,1	3,10	539
	50	30	20	0,55	0,10	1,2	0,1	2,39	540
2	50	40	10	0,55	0,10	1,2	0,1	3,62	623
	50	40	10	0,55	0,10	1,2	0,1	3,55	586
	50	40	10	0,55	0,10	1,2	0,1	3,57	607
3	50	50	—	0,60	0,10	1,2	0,1	3,64	678
	50	50	—	0,60	0,10	1,2	0,1	3,63	681
	50	50	—	0,60	0,10	1,2	0,1	3,69	662
4	50	40	10	0,75	0,15	—	0,2	2,18	634
	50	40	10	0,75	0,15	—	0,2	2,49	661
	50	40	10	0,75	0,15	—	0,2	2,35	655

Namunalarning mustahkamligi, superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilmagan nazorat namunalariga nisbatan oshganligini ko‘rsatdi. Olib borilgan tajriba ishlari “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning 2 – tartib raqamidagi tajribalarda “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton tajriba namunalarining mustahkamligi, 4 – guruhdagi superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilmagan nazorat namunalariga nisbatan 31 % ga yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan tashqari tajriba namunalarining mustahkamligiga kul-toshqol miqdorining ta’siri ham sezilarli ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi va 10 % miqdordagi kul-toshqol to‘ldiruvchi sifatida foydalanilgan namunalar qorishmalarining suvga talabchanligini 5 % ga kamaytirishga yordam berishi aniqlandi.

“SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning issiqlik o‘tkazuvchanlik xossasi. “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasini gazkulbetonning issiqlik o‘tkazuvchanlik xossasiga ta’sirini aniqlash Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “Qurilish va atrof-muhit muhandisligi” kafedrasida laboratoriyasining “ITC-1” markadagi qurilmasi yordamida sinovdan o‘tkazilib, issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari (λ) aniqlandi. 1-rasmda D600 markadagi turli xom ashyolar asosida tayyorlangan namunalarning sinov natijalari berilgan.

Tajriba ishlarida foydalanilgan “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning issiqlik o‘tkazuvchanligi, kul-sement asosida tayyorlangan gazkulbeton namunasiga qaraganda 10 % ga past ekanligi aniqlandi.



1-rasm. Xom ashyoga bog‘liq holda serg‘ovak beton namunalarining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientlarini o‘zgarishi.

“SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning sovuqqa chidamliligi. Tajriba ishlari “Gidroproekt” AJ ning qurilish materiallari laboratoriyasida hamda Farg‘ona politexnika institutining

“Qurilish materiallari va buyumlari” laboratoriyasida olib borildi. Serg‘ovak beton namunalarini sovuqqa chidamlilikga sinash natijalari 5-jadvalda berilgan.

Serg‘ovak beton namunalarini sovuqqa chidamlilikga sinash natijalaridan 33 marotabagacha muzlatish va eritish sikllaridan so‘ng, barcha tarkibdagi serg‘ovak beton namunalari sinovlarga yaxshi bardosh berganliklari aniqlandi. Sinalgan namunalarning massa va mustahkamligining kamayishi DAST 25485-2019 talablariga to‘liq javob berdi va sovuqqa chidamlilik bo‘yicha F35 markaga mos keladi. Modifikatsiyalangan gazkulbeton namunamiz esa boshqa namunalarga nisbatan sovuqqa chidamliligi 39 siklgacha sinaldi va F50 markaga mos ekanligi aniqlandi.

5-jadval

Serg‘ovak beton namunalarini sovuqqa chidamlilikga sinash natijalari


№ t/r	Serg‘ovak beton turi va xom ashyosi	Siqilishdagi o‘rtacha mustahkamlik, MPa		Muzlatish va eritishdagi yo‘qotish, %		Sovuqqa chidamlilikga aniqlashdagi sikllar soni	DAST 25485-2019 talabi bo‘yicha sovuqqa chidamlilik markasi
		Sinashdan avval	Sinashdan keyin	Massa	Mustahkamlik		
1	Ko‘pikbeton	2,1	1,94	4,4	7,7	27	F35
2	Gazbeton	2,3	2,12	4,2	7,9	29	F35
3	Gazkulbeton	2,4	2,25	1,8	6,2	33	F35
4	“SDj-1” qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton	3,7	3,5	1,3	5,4	39	F50

Dissertatsiyaning **“Kimyoviy qo‘shimcha bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning asosiy xususiyatlarini tahlillari va texnik-iqtisodiy samaradorligi”** nomli to‘rtinchi bobida esa “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning fazaviy tarkibi, mikrostrukturasi, sementning gidratatsiyasi, kristallanishi kabi xossalarini fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida xossalarini o‘rganish uchun differensial termik tahlil, rentgen fazaviy tahlil, infraqizil spektroskopiya va skanerlovchi elektron mikroskopiya usullaridan foydalanildi. “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalangan gazkulbetonning (RFT, DTT-TG, IQS, SEM) fizik-kimyoviy tahlillari natijalari keltirilgan.

Gazkulbetonlarning rentgen fazali tahlillari. Sement toshining struktura hosil qilishiga kul bilan birgalikda “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasining ta’siri o‘rganildi.

Bu jarayon natijalarini to‘liq tahlil qilish uchun tanlab olingan optimal tarkibdagi “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan va qo‘shilmagan gazkulbeton tajriba namunalarini rentgen difraksion tahlildan o‘tkazildi. Optimal

tarkibida tayyorlangan gazkulbeton namunalarini RDT qilingan rentgeno-grammalari 2-rasmlarda keltirilgan.



2-rasm. Olingan natijalar bo'yicha rentgeno-grammalar:

a) Angren IES kuli asosidagi gazkulbeton rentgeno-grammasi; b) 1,2 % "SDj-1" superplastifikator qo'shimchasi qo'shilgan gazkulbeton rentgeno-grammasi.

Angren IES kuli asosidagi gazkulbeton va 1,2 % "SDj-1" superplastifikator qo'shimchasi qo'shilgan gazkulbeton rentgeno-grammalari ko'rsatilgan (2-rasm).


a) suratni tahlil qilish natijasida turli minerallar va ularning asosiy cho'qqilaridagi sirtlararo masofalari quyidagicha ekanligi aniqlandi: Kremniy oksidi SiO_2 ($d = 4.25798 \text{ \AA}$); Kalsiy alyuminiy sulfat gidroksidi gidrati $\text{Ca}_6\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3(\text{OH})_{12}(\text{H}_2\text{O})_{26}$ ($d = 9.72632 \text{ \AA}$); Kalsiy gidroksidi $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ($d = 4.91623 \text{ \AA}$); Magniy kalsiy karbonat ($\text{Mg}_{0.06}\text{Ca}_{0.94}$) (CO_3) ($d = 3.03469 \text{ \AA}$); Kalsiy karbonat CaCO_3 ($d = 2.88734 \text{ \AA}$); Temir oksidi Fe_2O_3 ($d = 2.70010 \text{ \AA}$); Kalsiy natriy temir titan oksidi ($\text{Ca}_{0.6}\text{Na}_{0.4}$) ($(\text{Fe}_{1.6}\text{Ti}_{0.4})\text{O}_4$) ($d = 8.18365 \text{ \AA}$); Kalsiy magniy kremniy oksidi ($\text{Ca}_{0.49}\text{Mg}_{2.51}$) (MgSi) ($(\text{SiO}_4)_3$) ($d = 4.68992 \text{ \AA}$); Titan oksidi Ti_2O ($d = 2.55848 \text{ \AA}$).

b) suratni tahlil qilish natijasida turli minerallar va ularning asosiy cho'qqilaridagi sirtlararo masofalari quyidagicha ekanligi aniqlandi: Kremniy oksidi SiO_2 ($d = 4.23159 \text{ \AA}$); Kalsiy karbonat $\text{Ca}(\text{CO}_3)$ ($d = 2.27549 \text{ \AA}$); Magniy alyuminiy gidroksidi karbonat gidrati ($\text{Mg}_4\text{Al}_2(\text{OH})_{12}(\text{CO}_3)(\text{H}_2\text{O})_3$) ($d = 3.84245 \text{ \AA}$); Kalsiy gidroksidi $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ($d = 4.87056 \text{ \AA}$); Magniy kalsiy karbonat ($\text{Mg}_{0.03}\text{Ca}_{0.97}$) (CO_3) ($d = 3.02010 \text{ \AA}$); Alyuminiy magniy temir kalsiy kremniy gidroksidi ($\text{Al}_{9.92}\text{Mg}_{1.92}\text{Fe}_{1.16}\text{Ca}_{19}(\text{SiO}_4)_{10}(\text{Si}_2\text{O}_7)_4(\text{OH})_{10}$) ($d = 1.4822 \text{ \AA}$); Temir oksidi Fe_2O_3 ($d = 3.09346 \text{ \AA}$); Natriy titan oksidi kremniy oksidi $\text{Na}_2\text{Ti}_2\text{O}_3(\text{Si}_2\text{O}_6)$ ($d = 5.60499 \text{ \AA}$).

Gazkulbeton namunalarining differensial termik tahlillari. Dinamik termogravimetrik analiz usuli tekshirilayotgan namunalardagi fazaviy o'zgarishlarni qayd etish va ularning harorat parametrlarini o'rganish uchun qo'llanildi.

Tadqiqot ishida qo'shimcha qo'shilmagan va "SDj-1" superplastifikator qo'shimchasi bilan modifikatsiya qilingan gazkulbeton namunalarning termogravimetrik egri chiziqlari o'rganildi. "Angren IES" kuli asosidagi

superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilmagan gazkulbeton namunasining termogravimetrik tahlili amalga oshirildi (3-rasm).



3-rasm. Olingan natijalar bo‘yicha termogravimetrik tahlillar:


a) Angren IES kuli asosidagi gazkulbeton termogravimetrik tahlili; b) 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton termogravimetrik tahlili.

Keltirilgan IES kullari asosidagi gazkulbeton va “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton termogravimetrik tahlili quyidagi xulosaga asos bo‘ldi, kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan namunalarga nisbatan kimyoviy qo‘shimcha, ya’ni “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan namunalarga qaraganda umumiy massa yo‘qotilishining kamayganligi aniqlandi. Angren IES kuli asosidagi kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbeton namunasining umumiy massa yo‘qotilishi 23,297 % (1,512 mg) ni tashkil etgan bo‘lsa (3-rasm, a), Angren IES kuli asosidagi 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton namunasining umumiy massa yo‘qotilishi 20,446 % (1,67 mg) ni tashkil etdi (3-rasm, b). Bunda namunalarning harorat ta‘siridagi umumiy massa yo‘qotilishi 2,851 % ga farq qilishi aniqlandi. Bu esa kimyoviy qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton namunasining harorat parametrlari yaxshilanganligini tasdiqladi.

Gazkulbetonlarning infra qizil spektrli tahlillari. IQ-spektr usulida tadqiq qilishdan asosiy maqsad, moddalarni o‘zaro bir-biri bilan taqqoslash uchun qo‘llanildi. Tadqiqot ishida IQ-spektr usulidan kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan va 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton namunalarini IQ-spektrlarini o‘zaro taqqoslab sodir bo‘lgan o‘zgarishlarga baho berish uchun foydalanildi. Sinovlar natijasida olingan spektrogramma tasvirlari 4-rasmlarda keltirilgan.


Keitirilgan spektrogrammada (4-rasm) Angren IES kuli asosida tayyorlangan va kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbeton namunasining egri chiziqlarida $2852,72 \text{ sm}^{-1}$ – $2924,09 \text{ sm}^{-1}$ – $2368,59 \text{ sm}^{-1}$ sohalardagi tebranishlar qayd etilgan

bo‘lib, asosan “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgandan so‘ng aynan shu sohalarda asosiy o‘zgarishlar kuzatildi.



4-rasm. Angren IES kuli asosidagi gazkulbetonlarning infra qizil spektrli tahlillari: a) kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbeton IQ-spektri; b) 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton IQ-spektri.

Skanerlovchi elektron mikroskop va elementlar tahlillari. Angren IES kullari asosidagi “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shib tayyorlangan gazkulbeton namunalarining sirt morfologiyalari, mikrostrukturalari, gidrat neoplazmalarining fazaviy va elementlar tarkiblari elektron mikroskopda skanerlash usuli yordamida o‘rganildi. Gazkulbeton namunalarining elektron mikroskopik tasvirlari 5, 6-rasmlarda keltirilgan.




5-rasm. Angren IES kuli asosidagi kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbeton namunasining elektron mikroskopik tasvirlari va tarkibi.

5-rasmda Angren IES kuli asosidagi kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilmagan gazkulbetonning elektron mikroskopik tasvirlari keltirilgan bo‘lib, rasmning a)

qismiga e'tibor qaratisa u yerda gazkulbeton yuzasida mikro yoriqlar hosil bo'lganligini ko'rish mumkin, va shu sababli minerallarning o'zaro sifatsiz bog'langanligini kuzatish mumkin.

5-rasmning b) qismida belgilangan maydonchadagi mavjud kimyoviy elementlar va ularning miqdorlari tasvirlangan.



6-rasm. Angren IES kuli asosidagi 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning elektron mikroskopik tasvirlari va tarkibi.

6-rasmda Angren IES kuli asosidagi 1,2 % “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonning elektron mikroskopik tasvirlari keltirilgan bo‘lib, rasmning a) qismiga e'tibor qaratisa u yerda gazkulbeton yuzasida mikro yoriqlar mavjud emasligi va namunada hosil bo'lgan g'ovaklar yopiq turga mansub ekanligini, g'ovak devorlarining zichligini va ularda mikro yoriqlar yo'qligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, u yerda minerallar ko'plab bog'lanish va “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi ta'sirida turli shakldagi neoplazmalar hosil bo'lganligini ko'rish mumkin. 6-rasmning b) qismida belgilangan maydonchadagi mavjud kimyoviy elementlar va ularning miqdorlari tasvirlangan.

“SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonni tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish va texnik-iqtisodiy samaradorligi. Dissertatsiyaning ushbu paragraflarida “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonni tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish va “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi bilan takomillashtirilgan gazkulbetonning texnik-iqtisodiy samaradorligi keltirib o'tilgan. “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbetonni tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahridagi “New building-bricks” MCHJ, Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumani, Zilxa shaharchasidagi “Zilxa temir beton mahsulotlari” SHK larda amalga oshirildi. Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahridagi “New building-bricks” MCHJ da “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi qo‘shilgan gazkulbeton bloklarini tajriba-ishlab chiqarishga tatbiq qilingan.

“SDj-1” superplastifikator kimyoviy qo‘shimchasi bilan takomillashtirilgan gazkulbetonning texnik-iqtisodiy samaradorligi. “SDj-1” superplastifikator

qo‘shimchasi asosida takomillastirilgan gazkulbetonni tayyorlash uning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash bilan bir qatorda, xom ashyoni tejashga va energiya sarfini kamaytirishga doir bo‘lgan dolzarb muammolarni ham qisman yechimini o‘z ichiga oladi.

Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahridagi “New building-bricks” MCHJ da modifikatsiyalangan 1 m³ gazkulbeton bloklari ishlab chiqarishdan 93 978 so‘m tejashga ya‘ni, 22 % gacha iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi aniqlandi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Gazkulbeton tayyorlash uchun to‘ldiruvchi sifatida IES kulidan bog‘lovchi massasiga teng miqdorda ya‘ni 1/1 nisbatda foydalanish eng qulay miqdor ekanligi tajriba sinov ishlari natijasida aniqlandi. Tajriba tadqiqot ishlari natijasida D600 markadagi gazkulbeton qorishmasini tayyorlash uchun 300 kg sement, 300 kg kul, S/Q-0.6, “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasi sementni massasiga nisbatan 1,2 % miqdorda qo‘shib tayyorlash eng optimal tarkib ekanligi aniqlandi.

2. Gazkulbetonning mustahkamligi va o‘rtacha zichligini o‘zgarishiga foydalanilgan komponentlarning ta‘sirini ifodalovchi matematik model ishlab chiqildi. Gazkulbeton mustahkamligi (R) bo‘yicha o‘rganilgan faktorlar orasidagi bog‘liqlik chiziqli ekanligi aniqlandi. Hisoblash davomida aniqlangan koeffitsientlarning ahamiyatli ekanligi Student kriteriyasi bo‘yicha tekshirildi va hosil qilingan tenglama Fisher kriteriyasi bo‘yicha taqqoslab yaroqliligi (adekvatligi) tasdiqlandi.

3. “SDj-1” superplastifikatori gazkulbeton qorishmasiga 1,2 % miqdorda qo‘shilganida, uning qotish jarayonini tezlashtirishi va suvga talabchanligini 15-20 % ga kamaytirishi aniqlandi. “SDj-1” superplastifikator qo‘shimchasini gazkulbetonga ta‘sirini fizik-kimyoviy tahlil qilish usullari orqali aniqlandi va ijobiy natijalar olindi.

4. Modifikatsiyalangan gazkulbeton tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilish ishlari Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahridagi “New building-bricks” MCHJ da hamda, Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumani, Zilxa shaharchasidagi “Zilxa Temir Beton Maxsulotlari” SHK larida modifikatsiyalangan 1 m³ gazkulbeton bloklari ishlab chiqarishdan 22 % gacha iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.26/30.12.2019.Т.11.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ АРХИТЕКТУРНО-
СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ОТАЖОНОВ ОЛМОСБЕК АСКАРАЛИЕВИЧ

**ИССЛЕДОВАНИЕ ОПТИМАЛЬНОГО СОСТАВА, СВОЙСТВ И
ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА РЕСУРСΟΣБЕРЕГАЮЩИХ
СТЕНОВЫХ ЗОЛОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ
ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ**

05.09.05 – «Строительные материалы и изделия»

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание учёной степени
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент-2024

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.2.PhD/T2959.

Докторская диссертация выполнена в Ферганском политехническом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.taqu.edu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Сатторов Зафар Мурадович кандидат технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Бахадиров Азизбек Абдулазизович доктор технических наук, профессор Ахмедов Султан Илясович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский научно-исследовательский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится 7 ноября 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.26/30.12.2019.T.11.01 при Ташкентском архитектурно-строительном университете. (Адрес: 100194, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Янги шаҳар, дом 9. Тел.: (+99855) 508 02 95; факс: (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.uz, devon@taqu.edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского архитектурно-строительного университета (за регистрировано за № 130). (Адрес: 100194, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Янги шаҳар дом 9. Тел.: (99855) 508 02 95; факс: (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» октября 2024 года.

(протокол рассылки № _____ от _____ октября 2024 г.).

Х.А. Акромов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

И.И. Сиддиков
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Б.А. Аскарлов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность диссертационной темы. В мировой промышленности строительных материалов растет потребность в производстве энергоэффективных, ресурсосберегающих, теплоизоляционных, недорогих настенных ячеистых бетонных изделий, обладающих благоприятными эксплуатационными свойствами на основе использования при изготовлении материалов различных видов твердых промышленных отходов. В настоящее время в результате сжигания угля на теплоэлектростанциях всех стран мира за один год образуется более 900 миллионов тонн золы. Поэтому вопросы проведения исследований по улучшению качества и технологии производства пористых, лёгких бетонных блоков с применением золы занимают одно из ведущих мест среди глобальных проблем нашей планеты, так как утилизация отходов сгорания топлива позволяет улучшить окружающую среду. В настоящее время особое внимание уделяется улучшению прочностных, теплопроводных, звукоизоляционных и огнестойких свойств газозолобетона путём добавления химических добавок и созданию энергоэффективных технологий их производства.

Во всём мире проводятся научные и исследовательские работы по улучшению физических, механических и химических свойств газозолобетонов, оптимизации их состава, улучшению энергоэффективности технологии их производства, использованию химических добавок для сокращения сроков твердения, снижению водопотребности, использованию местного сырья и вторичных ресурсов производства, снижению расхода минеральных вяжущих веществ. В этом плане основными приоритетами являются улучшение водостойкости, повышение прочности, снижение теплопроводности ячеистых бетонов, создание идеальной структуры и определение оптимального количества промышленных отходов, которые будут включены в их состав. В связи с этим в актуальным является создание нового композитного газозолобетона на основе золы теплоэлектростанций, устойчивого к различным природно-климатическим условиям и внешним воздействиям, а также обладающего удобными эксплуатационными свойствами.

В нашей республике принимаются масштабные меры по производству качественных энерго- и ресурсосберегающих строительных материалов на основе местных твердых отходов промышленности и расширению их ассортимента, по обогащению внутреннего рынка конкурентоспособной продукцией из местного сырья. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» определен ряд задач, которые необходимо решить в сфере «снижения потерь в отраслях промышленности и повышения эффективности использования ресурсов и обеспечения энергоэффективности». Среди вышеуказанных задач важное значение имеет производство строительных материалов из местного сырья, разработка состава различных

ресурсосберегающих стеновых строительных материалов на основе экономии бетонных заполнителей, являющихся природным ресурсом.

